

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**KORPORATIV BOSHQARUV FAKULTETI**  
**“BANK ISHI” KAFEDRASI**

Bitiruv malakaviy ishi  
himoyaga tavsiya etiladi  
“Bank ishi” kafedrası  
mudiri – i.f.n F.N.Nasriddinov

---

«\_\_\_\_\_» iyun 2018 yil

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Tijorat banklari depozit operatsiyalarining samaradorligini oshirish  
yo‘llari.**

**(ChEKI “Hamkorbank” ATB misolida)**

**Bajardi:** Korporativ boshkaruv fakulteti, “Bank ishi”  
ta‘lim yo‘nalishi, 4-kurs, BD-51 guruhi talabasi  
Bobojonov Bahrom Oybek o‘g‘li

**Ilmiy rahbar:** “Bank ishi” kafedrası dotsenti  
Alimov I.I. \_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoyadan o‘tgan. 2018 yil \_\_\_iyundagi  
\_\_\_- sonli bayonnoma bilan rasmiylashtirilgan.

**TOSHKENT – 2018**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>		3
<b>1-BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT OPERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLAR.</b>	9
1.1.	Tijorat banklari depozit operatsiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari.	9
1.2.	Tijorat banklari tomonidan pul mablag‘larini depozitga jalb qilish va uning bank faoliyatidagi o‘rni.	15
<b>2-BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT OPERATSIYALARINING TAHLILI.</b>	27
2.1.	Tijorat banklari tomonidan depozitga mablag‘larni jalb etishning hozirgi holatining tahlili.	27
2.2.	ChEKI “Hamkorbank” ATBning depozit operatsiyalari tahlili.	35
<b>3-BOB.</b>	<b>TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.</b>	57
3.1.	Tijorat banklari o‘rtasida depozit operatsiyalarini jalb qilish bo‘yicha raqobatni rivojlantirish istiqbollari.	57
3.2.	Tijorat banklariga depozitlarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘nalishlari.	67
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.</b>		79
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.</b>		83

## Kirish

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Iqtisodiyotda bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga ko'prok jalb qilish, jozibador epozit turlarini muntazam joriy etish orqali ularning manfaatdorligini oshirish hamda eng muximi depozitga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik bazasini xar tomonlama takomillashtirishga aloxida ahamiyat berilmokda. Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan Iqtisodiyotda bo'sh pul mablag'larini banklardagi depozitlarga jalb qilgan holda qo'shimcha daromad olish imkoniyatlarini yaratish yo'lida izchil sa'y-xarakatlar olib borilmoqda. Buning zahirida xalq farovonligini oshirish, aholining turmush darajasini yuksaltirish maqsadi yotgani e'tiborga molikdir. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu borada qabul qilingan qonuniy hujjatlar Respublika bank tizimini rivojlantirish va uni jahon andozalariga muvofiqlashtirish muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan ikki barobardan ham ko'pdur. Bu esa ushbu mablag'larni ishonchli himoya qilish xamda ularga o'z vaqtida va to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi. Malumki, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan fuqarolarning banklardagi omonatlari, ularning miqdoridan qat'iy nazar, davlat tomonidan to'la kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonida bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish ko'zda tutilgan. Shuning uchun iqtisodiyotda bank tizimining ahamiyatini oshirish maqsadida bir tomondan bank tizimi faoliyatini pul-kredit vositalari orqali tartibda solishning turli tamoyillari, yondashuvlar va aniq shakllari muhim ahamiyatga ega bo'lsa, boshqa tomondan, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi sharoitida bank tizimi

operatsiyalaridan samaraliroq foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyotidagi islohotlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini oshirish hamda uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish bugungi kunda zamon talabidir. Mamlakatimizda bank tizimida erishilgan ijobiy natijalarga qaramay o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Milliy bank tizimiga o‘z diqqat e‘tiborini qaratgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tdi “Nima sababdan plastik kartochkalarni muomalaga kiritishdan ilgari barcha mexanizmlar puxta ishlab chiqilmagan? Nima uchun ko‘plab tashkilotlar, eng avvalo, byudjet tashkilotlari xodimlari – o‘qituvchilar, vrachlar, xizmatchilar va hatto pensionerlar, ayrim amaldorlarning qo‘shirnoq ichidagi «yangilik»laridan qiynalishi kerak».<sup>1</sup>

Xalqaro standartlar asosida samarali bank nazoratining amalga oshirilishi, bank likvidligi va aktivlari sifati ustidan doimiy monitoring olib borilishi mamlakatimiz banklariga etakchi xalqaro reyting agentliklarining ijobiy reyting baholarini olish imkoniyatini berdi. Prezidenti SHavkat Mirziyoev o‘zining Oliy Majlisga Murojatnomasida shunday degan edi. “Iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyatga ega. Biz aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirmasdan turib, “yashirin iqtisodiyot”dan to‘liq xalos bo‘la olmaymiz.

2018 yilda bank tizimi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda banklar bilan tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta‘minlash masalalariga asosiy e‘tiborni qaratish zarur”.<sup>2</sup> deb takidlab o‘tganlar.

Banklarga depozitlarni jalb qilishni kengaytirish uchun avvalambor mijozlarning ishonchini qozonish zarur. Chunki mijozlar pul mablag‘larini to‘liq xajmda va o‘z vaqtida qaytarib olishiga ko‘zi yetmaguncha banklarga depozitlarini xech qachon topshirmaydi bu esa mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

---

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston” 2017.

<sup>2</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi” T.: “O‘zbekiston” 2017.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining mohiyati, ularning vazifalari va bank tizimidagi muammolarni o'rgangan iqtisodchi olimlar Sh.Abdullaeva, I.Alimov, O.Akromov, B.Berdiyarov, T.Boboqulov, T.Koraliev, I.Toymuxammedov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Xozirgi kunda depozit operatsiyalarini bank tizimiga jalb etish va rivojlantirishda bir qancha muommolar mavjud bo'lib ushbu muommolarni o'rganib ularga yechim topishga bitiruv malakariy ishda xarakat qilinmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Tijorat banklariga depozitlarni jalb qilishdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni o'rganib mavjud yechimlarini topib bartaraf etishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

- tijorat banklari tomonidan pul mablag'larini depozitga jalb qilish va uning bank faoliyatidagi o'rni ochib berish;
- tijorat banklari tomonidan depozitlariga mabla'glarni jalb etishning hozirgi holati yoritib berish;
- ChEKI "Hamkorbank" ATBning depozit operatsiyalari tahlilini ochib berish;
- tijorat banklarida depozitlarni jalb qilishni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.** Sifatida O'zbekiston Respublikasining bir qator banklari va ularning depozit operatsiyalari, xususan ChEKI "Hamkorbank" ATB faoliyati tanlab olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** Sifatida O'zbekiston Respublikasining bir qator banklari depozit operatsiyalar bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar belgilanishi ko'zda tutildi.

**Bitiruv malakaviy ishining natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqilgan alohida tavsiyalar va takliflar Respublikamiz tijorat banklarining depozit operatsiyalari turlarini amaliyotga

kiritish va bu jarayonda depozit siyosatini shakllantirish usullari hamda mexanizmlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytiradi.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar qismidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, va qo'llash bo'yicha tavsiyalar bayon qiligan.

Ishning "Tijorat banklari depozit operatsiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimiz tijorat banklarida depozit operatsiyalarning ahamiyati va unda depozit siyosatining o'rni va joriy etish asoslari ochib berilgan.

Ishning ikkinchi "Tijorat banklarining depozit operatsiyalari tahlili" nomli bobida O'zbekiston Respublikasi bank tizimida depozit operatsiyalarini rivojlantirishning zamonaviy xususiyatlari va ChEKI "Hamkorbank"da depozit operatsiyalarini joriy etish holati tahlil etilgan.

"Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish yo'llari" deb nomlangan uchinchi bobida depozitlarni samaradorligini oshirishni joriy etishda va O'zbekiston tijorat banklarida depozit operatsiyalar bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Ishning xulosa va takliflar bo'limida esa ish bo'yicha muallifning ishlab chiqqan xulosalari va o'z takliflari o'rin egallagan.

# **I.BOB. TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT OPERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLAR.**

## **1.1. Tijorat banklari depozit operatsiyalarining shakllantirishning nazariy asoslari.**

“Tijorat banklari jalb qilgan mablag‘larining asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo‘yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag‘ida ma‘lum vaqtgacha saqlanadigan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi. Bank amaliyotida qo‘llanilayotgan depozitlar va umuman, depozitlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya-kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog‘ozlar yoki pul mablag‘lari tushuniladi”<sup>3</sup>.

Rossiyalik iqtisodchi olim L.S.Padalkinaning fikricha depozit tarkibiga faqat muddatsiz depozitlar kiradi. E.M.Rode depozitlar o‘z ichiga, jamg‘arma sertifikatlaridan tashqari – barcha muddatli va muddatsiz omonatlarni oladi, deb ta’kidlaydi.

Depozit mijozlarning bankka vaqtincha foydalanish uchun bergan mablag‘lari bo‘yicha bank va mijoz o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni aks ettiradi.

Depozitlarning guruhlanishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar va iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim manbalarda ular asosan, uchta guruhga ajratilsa, ba’zi adabiyotlarda to‘rtta guruhga ajralishi ta’kidlanadi, Markaziy bankning depozitlar to‘g‘risidagi nizomida esa beshta guruhga bo‘lingan.

Bizning nazarimizda, banklarning depozit operatsiyalarini iqtisodiy mazmuni va muddatiga qarab to‘rtta guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

Ushbu guruhga talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi

---

<sup>3</sup>Мицек С. А. «Экономика финансовых институтов» Екатеринбург. 1996. С. 42

depozitlar, muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlar va boshqa depozitlar kiradi.

Tijorat banklari ustavida umumiy ko'rsatmalardan so'ng, bankning mijozlar bilan bajaradigan operatsiyalari, jumladan, aholi jamg'armalarini depozitga jalb qilish bo'yicha operatsiyalari ko'rsatib o'tilgan. Xozirgi kunda banklarning eng asosiy operatsiyalaridan biri bu – depozit operatsiyalardir.

Oldingi davrida banklarda bo'sh turgan mablag'larni jalb qilishdan manfaatdorlik yo'q edi, chunki banklarning aktiv operatsiyalari miqdori jalb qilingan mablag'lar miqdoriga qarab emas, balki kredit qo'yilmalari bo'yicha o'rnatilgan limitga qarab aniqlanar, jalb qilingan mablag'lar bo'yicha rag'batlantirish bilan banklar shug'ullanmas edilar. Aksariyat xollarda yirik loyixalarni amalga oshirish uchun bank ssudalari o'rniga ko'proq byudjet mablag'lari jalb qilinardi. Shu bois, muddatli depozitga o'rta va uzoq muddatli kredit manbalari sifatida jamgarishga extiyoj bo'lmagan.

Ikki pog'onali bank tizimiga o'tilishi, iqtisodiy mustaqil tijorat banklarining tashkil topishi, banklarning o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyiliga o'tishi, aktiv va passivlar muvofiqligiga erishish muammosi bank faoliyatida dolzarb masalalarga aylandi.

Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- depozitlar;
- nodepozit resurslar.

Jalb qilingan mablag'larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi. Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga, bank uchun ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Pul qo'yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar)
- jismoniy shaxslar

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- talab qilib olingunga qadar depozitlar;



- muddatli depozitlar;
- aholining jamg'arma omonatlari.

Talab qilingunga qadar depozitlar – bu bankni oldindan o'g'oxlantirmay, mijoz tomonidan hohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag'lardir. Talab qilib olinguncha depozitlarni bir necha xususiyatlariga ko'ra quyidagicha ifodalash mumkin:

- talab qilib olinguncha depozitlar bu qo'yilmalar bo'lib, ular bankning jalb qilingan mablag'lariga depozitlar bo'yicha majburiyatga kiradi;

- talab qilib olinguncha depozitlar mijozlar tomonidan istalgan maqsadlarda tashkil etilishi mumkin, faqatgina qonun doirasida. Odatda ular mijozning to'lov aylanmasini amalga oshirish uchun tashkil etiladi;

- mijoz o'z mablag'larini kaytarilishini istalgan vaqtda talab qilishi mumkin.
- talab qilib olinguncha depozitlarga to'lanadigan foizlar boshqa depozitlarnikiga nisbatan ancha past yoki ularga foiz umuman to'lanmaydi. Bunga asosiy sabab, banklar bu qo'yilmalardan boshqa depozitlarga o'xshab kredit operatsiyalarida erkin foydalana olmaydi.

Mijozlar uchun talab qilib olinguncha depozitlarning ustunligi va kamchiligi quyidagilardan iborat:

- Talab qilib olinguncha depozitlari, birinchi navbatda, to'lov aylanmasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Korxonalar pul mablag'larini bankda saqlashlari shart hamma to'lovlarni aynan shu schyot orqali amalga oshirishlari lozim.

- Kimki naqd pulga ega bo'lsa, u o'z pulini yo'qolishidan, ug'irlanishidan va yo'q qilinishidan saqlashi lozim. Ularni bankning talab qilib olinguncha depozitlarida saqlashlari bilan mijozlar naqd pulni ortiqcha ko'tarib yurish g'amidan ham qutulishadi.

- Bu depozitlarga ham pullarni to'liq yoki bo'laklab qabul qilinishi mumkin.

Muddatli depozitlar – bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlar qo'yilgan muddat davomida o'zgarmas bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli depozitlar ularning muddatidan kelib chiqib tasniflanadi:

- 3 oy muddatgacha depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
- 12 oydan yuqori bo'lgan depozit mablag'lar.

Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma hohlagan vaqtda egasi tomonidan kaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul ko'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'likdir. Qo'yilmaning muddat va summasi qancha katta bo'lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Pul ko'yuvchi tomonidan qo'yilma bo'yicha mablag'lar muddatidan oldin olinganda u shartnomada ko'rsatilgan foizlardan to'liq yoki qisman mahrum bo'lishi mumkin. Odatda bunday hollarda foizlar talab qilinguncha qo'yilmalarga to'lanadigan foizlar hajmigacha pasaytiriladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shu bois, tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi hususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas foiz to'lanadi;
- joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;
- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim, aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;
- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yunaltiriladi;
- majburiy zaxira me'yori nisbatan past bulishi mumkin.

Jamg'arma depozitlari aholi pul jamg'armalarining to'planishi uchun xizmat qiladi. Jamg'arma depozitlariga pul mablag'larini jamg'arish yoki saqlash maqsadida shakllantirilgan qo'yilmalar kiradi. Ularning o'ziga xos tomonlari –

saqlashning rag'batlantirilishi, yuqori daromadlilik darajasi va ma'lum davr ichida jamg'arilib borishi kabilar hisoblanadi.

Jamg'arma depozitlariga qo'yilmalar bo'laklab qo'yilishi yoki olinishi mumkin. Mijoz har doim ham shaxsiy depozitidagi mablag'ni kaytarishni erkin talab qila olmaydi. U qo'yilmani to'liq yoki bir qismini qaytarishni talab qilish huquqiga ega bo'lsa-da, lekin ko'pincha bu muddatli majburiyatlarga bog'lik bo'ladi. Jamg'arma depozitlarning banklar uchun ustunligi shundan iboratki, jamg'arma qo'yilmalari odatda uzoq muddatli hususiyatga ega bo'ladi, bu esa bank uchun uzoq muddatli kreditlashning manbasi bo'lib hizmat qiladi. Banklar uchun bu depozitlarning kamchiligi quyidagilardan iborat:

- bu depozitlar bo'yicha yuqori foizlar to'lanadi, natijada banklarning marjasi kamayadi, ya'ni aktiv va passiv kredit operatsiyalari bo'yicha foizlar ayrilmasi kamayadi

- bu qo'yilmalarning turli xil omillarga ta'sirchan ekanligi (siyosiy, iqtisodiy, omillar), bu esa qo'yilmalar birdan bankdan chiqib ketishini tezlashtirib yuborishi mumkin va bankning likvidligi yo'qolishiga sabab bo'ladi.

- banklar bu qo'yilmalarni doimiy ravishda yangilab tura olish qobiliyatiga ega emas.

Mijoz uchun bu depozitning ahamiyati shundaki, mijozlar bu depozitlarga pulni qo'yish bilan ko'zda tutilmagan har xil harajatlar uchun rezerv tashkil etadi, pulni yig'adi va kapital tashkil etadi.

Jamg'arma depozitlar saqlanishi turiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkun:

- muddatli;
- joriy raqamga qo'yiladigan mablag'lar
- plastik kartochkalar;
- depozit sertifikatlari

Agar shaxs nomiga berilgan omonat daftarchasi yo'qolsa yoki chiqib etish uchun yaroksiz holga kelib qolsa, bank omonatchining arizasiga ko'ra unga yangi omonat daftarchasini beradi.

Jamg'arma depozitlarining asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- omonat daftarchalaridagi depozitlar (takdim etuvchining nomiga berilgan, egasi ko'rsatilgan);

- hisobvaraqlar holati ko'chirma qilinadigan depozitlar.

Jamg'arma depozit hisobvaragi ochilganda bank jismoniy shaxsga bankning barcha operatsiyalari aks ettiriladigan omonat daftarchasini beradi. Hisobvaraqlar yopilgan taqdirda, omonat daftarchasi bankka qaytarilishi lozim. Depozitor omonat daftarchasiga hech qachon biron-bir yozuv kiritmasligi zarur, chunki bank notug'ri rasmiylashtirilgan va tan olinmagan yozuvlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Yuridik shaxslar jamg'arma depozit hisobvarag'ini shartnoma asosida belgilangan tartibda ochadi.

Hisobvaraqlardagi holati ko'chirma qilinadigan depozitlar omonat daftarchalari depozitlaridan farqli ravishda shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi, ulardan ko'chirmalar shartnoma shartlarida ko'rsatilgan muddatlarda davriy ravishda depozitorning manziliga jo'natib turiladi. Bu depozitorlarni bankka qatnashdan ozod qiladi va ular bilan pochta orqali aloqa bog'lab turish imkonini beradi. Bank pochta orqali omonatchining hisobvarag'idan ko'chirmalarni jo'natish harajatlarini uning hisobvarag'idan undiradi.

Hisobvaraqlardan olingan ko'chirmalar va summaga doir daftarchadagi barcha o'zgarishlarni depozitor o'rganib chiqishi hamda har kanday nomuvofiqlik tug'risida zudlik bilan habar qilishi kerak. Habar qilingan nomuvofiqlikni bank birlamchi xujjatlar asosida bartaraf qilishi zarur.

Bankga depozit qo'yganlar bank muassasalaridan birinchi murojatlarida depozitlarini olishlari, depozitlardan pul mablag'larini olishni boshqa shaxsga ishonishlari, mumkin. Bankga qo'yilgan depozitlarning sir tutilishi qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Depozitdan foiz ko'rinishidagi daromad oladilar. Omonatlardan keladigan daromadlar soliqlardan ozod qilinadi, ya'ni ular bo'yicha daromad solig'i olinmaydi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida omonatchining birinchi talabi bo'yicha omonat to'liq yoki qisman beriladi.

Uchinchi shaxs nomiga omonatga pul mablag'i ko'ygan kishi bu omonatdan foydalanish huquqiga ega emas. Hozirgi kunda "Hamkorbank" bilan bir qatorda Respublikamizda faoliyat yuritayotgan ko'plab banklar aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirmoqdalar.

Tijorat banklari o'rtasida depozitlarni o'ziga jalb qilish bo'yicha erkin raqobat kurashi bormoqda. Depozitlarni o'ziga jalb qilish uchun tijorat banklari aholini qiziqtiradigan jozibador depozit turlarini taklif qilmoqdalar.

## **1.2. Tijorat banklari tomonidan pul mablag'larini depozitga jalb qilish va uning bank faoliyatidagi o'rni**

Depozitlari banklarda ma'lum vaqtda qolib, kreditorlarga ma'lum daromad keltiradi yoki bepul bank xizmatlarini beradi va shuning bilan birga bankka ham daromad keltiradi. Banklarning daromadi ssudalardan olingan foiz summasidan depozitlarga to'lanadigan foiz summasi o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

Jalb qilingan mablag'lar va ularning harakati, tijorat banklarda mahsus raqamlarda aks ettiriladi. Yuridik shaxslar uchun hisob-kitob raqami ochiladi, boshqa banklardan jalb qilingan mablag'larning hisobi korrespondent hisob raqamda yuritiladi. Aholidan jalb qilingan mablag'larga bank alohida hisob-raqam ochadi. Depozit va jamg'arma sertifikatlari va boshqa raqamda yuritiladi.

Mijozlardan va boshqa kreditorlardan mablag' olish — banklarning passiv operatsiyalarning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. Banklararo raqobat natijasida, ya'ni jamg'arma quyilmalarni ko'ppiq jalb qilish natijasida mijozlarga har xil qulayliklar yaratish banklarning asosiy maqsadi bo'lib qoldi. Bu jarayon natijasida yangi depozitlarning shakli vujudga kelmoqda. Masalan, ATS raqamlari. ATS (automatic transfert from saving) bu raqam omonatdan avtomatik ravishda pul to'lash. Omonatchining shartnomasi asosida o'z ish haqlari yoki boshqa daromadlari omonatiga kelib tushgandan so'ng bank uni kerakli, masalan kommunal to'lovlar yoki shunga o'xshash to'lovlarni avtomatik tarzda to'laydi.

Raqobat qilayotgan banklar o'z depozitlarini ko'paytirish uchun sifatini yaxshilashga harakat qiladi. Bunga erishi uchun har xil metodlar ishlab chiqadi. Ammo banklarning umumiy metodlar quyidagicha:

- depozit operatsiyalari foyda keltirishi yoki foyda olish uchun qulaylik yaratishi kerak va depozit operatsiyalari har xil bo'lishi kerak.

- depozit operatsiyalarni tashkil etishda asosiy e'tiborni muddatli qo'yilmalarga qaratish kerak. Bank jalb qilingan mablag'lari o'z tarkibi bo'yicha turlichadir. Ularning eng asosiy miqdori mijoz bilan ishlash jarayonida va boshqa kredit tashkilotlaridan olingan mablag'lardan shakllanadi. Omonatning olinishi haqida ogaxlantiruvchi qo'yilma mijoz tomonidan mablag'ni olinishini xoxlasa, bankni bu haqida shartnomada belgilangan muddat tugashidan avval ogoxlantirish kerak. Bu qo'yilmaning muddati qancha o'zoq bo'lsa foiz stavkasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Muddatli depozitning summasi yiriklashtirilgan bo'lishi kerak va shartnoma muddati tugaguncha o'zgarmasligi lozim. Muddatli depozitlar hisob kitob uchun ishlatilmaydi. Omonatchi o'z mablag'larini shartnoma muddati tugamasdan olmoqchi bo'lsa, u holda depozitor shartnomada kelishilgan foizni qisman yoki talab qilib olgungacha bo'lgan depozit foizi darajasida oladi. Banklar depozit shartnoma formalarini o'zlari to'zadi. Shartnoma ikki nusxada to'ziladi: birinchisi mijozda, ikkinchisi esa bankning kredit yoki depozit bo'limida saqlanadi. Shartnomada depozit summasi, amal qilish muddati, shartnoma muddati tugaganda depozitor oladigan foiz darajasi, mijozni majburiyati va xuquqlari, bankni majburiyati va xuxuqlari, tomonlarning shartnomadagi talablarni bajarishlari, kelishmovchiliklarni xal qilish tartiblari ko'rsatishadi. Bank shartnomada ko'rsatishgan hamma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishiga javobgardir. Agar bu majburiyatlar bajarilmasa, depozitor banqda depoziti berilmagani yoki foizlari to'liq to'lanmagani uchun banqdan jarima yoki ustama xaq talab qilishga haqli. Mijoz va bank orasidagi kelishmovchiliklar arbitraj sudi jarayonida xal qilinishi shart.

Bank operatsiyasi daromadliligi to'g'ridan-to'g'ri bank resurslarining sifatiga bog'liq. Bank resurslarining sifati, uning muddati bo'yicha detal

klassifikatsiyasi, ishlatilganligi uchun to'lov, qo'yilmaning effektivligini o'z ichiga oladi.

Bozor munosabatlari sharoitida mamlakatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri - Respublikamiz aholisining turmushini moddiy va ma'naviy jihatdan oshirishdir. Bu esa Respublikamiz iqtisodiyotimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taqozo etadi. Bu vazifani bajarish uchun ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish, chet davlatlar tajribasidan foydalanish, qo'shma korxonalar tashkil etish, chet el investitsiyalarini jalb qilish, xom ashyoni qayta ishlashni rivojlantirish va tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish lozim. Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlatirish, aholi turmush darajasini oshirish, jamg'arma ishini rivojlantirish va aholi pul daromadlarini tashkil qilinishi va ko'payishi uchun asosiy shart-sharoit hisoblanadi. Aholi pul daromadlarining ko'payishi esa aholi pul jamg'armalarining ko'payishiga asos bo'ladi.

Aholi pul jamg'armalari bu - aholining iste'mol maqsadlariga vaqtincha ishlatilmay bo'sh turgan, kredit muassasalarining birida yoki aholining o'z qo'lida yig'ilgan, mehnatdan topgan daromadning bir qismidir. Aholining asosiy qismi o'zlarining ortiqcha pul mablag'larini bank muassasalariga omonatlar bo'yicha ochilgan hisob varaqlarga qo'yadilar. Aholining yana bir qismi sug'urta shartnomalarini tuzish asosida ortiqcha pul mablag'larini sug'urta tashkilotiga o'tkazadilar.

Umuman olganda, aholi jamg'armalari maqsadli harakterga ega, ya'ni ular biror maqsadni ko'zlab yig'iladi. Masalan: bir oylik maoshga televizor, mebel, mashina yoki mo'zlatgich kabi tovarlarni sotib olish mumkin emas. Shuning uchun, bankdagi hisobvaraqlarda asta-sekin pul mablag'larini yig'ib, ma'lum bir summa yig'ilgandan so'ng, uni olib, kerakli tovarni sotib olish mumkin. Aholining turmush darajasi ortib borgan sayin uning iste'mol strukturasi ortib boradi. Ularning harajatlari oldindan pul yig'ilishini taqozo etadi. Bu esa yangi omonat turlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Aholining ma'lum bir qismi o'zlarining mehnat faoliyati jarayonida ortiqcha pul mablag'lari yig'ilib qolsa, pensiyaga chiqqan davrda o'z turmush darajalarini avvalgidek yaxshiligicha saqlab qolish maqsadida banklarga o'z omonatlarini topshiradilar. Shu bilan birga ayni bir vaqtda aholining bir qismida biror kattaroq tovar sotib olish zarurati bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda ham ortiqcha pul mablag'lari bankdagi hisobvaraqlarda saqlanishi mumkin. Masalan: mashina, mebel, mo'zlatgich, magnitofon, televizor va hokozolar bir marta sotib olingandan so'ng bir necha yillargacha qayta sotib olinmaydi. Shu sababli, aholi omonat bo'yicha hisobvaraqlardagi pul mablag'larini qandaydir muddatga saqlashni davom ettiradilar.

Pul mablag'lari ustidan boshqarish va nazorat o'rnatish uchun aholi jamg'arma qilishga majbur qilgan sharoitlar, shu bilan birga jamg'arish protsessiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib chiqish kerak. Yuqorida aytib o'tganimizdek, aholi o'zlarining ortiqcha pul mablag'larini turli maqsadlar uchun jamg'arib boradilar. Jamg'armalarning klassifikatsiyasi alohida olingan oila yoki alohida shaxs bilan bog'liq, lekin shu bilan birga jamiyatning umumiy rivojlanishi ham jamg'armalar holatiga ta'sir ko'rsatadi. Jamg'armalarni tashkil etish imkoniyati aholi pul daromadlari harakatining darajasi va mazmunini belgilab beradi. Daromadlar va harajatlar o'rtasidagi muvozanat jamg'arma jarayonini o'zgarishini baholashning kriteriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Aholining talabi va uning moddiy ta'minlanishi o'rtasidagi farq jamg'arma jarayonining normal holatining bo'zilganligidan dalolat beradi. Bunday holat pul jamg'armalarining xaddan ortiq ko'payishiga olib keladi.

Bunday jamg'armalar bozorga ham o'z ta'sirini o'tkazib, baholarning ko'tarilishiga olib keladi. Bu esa ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi. Umuman, jamg'armalarga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin:

- a) ishlab chiqarish darajasining iste'mol darajasiga mos kelishi;
- b) ishlab chiqarishning joylashtirilishi;
- v) ish haqi to'lash usullari;



- g) aholi pul daromadlarining turlari;
- d) bahoning umumiy darajasi;
- e) aholi jamg'arma turlarining rivojlanish darajasi;
- j) Respublikamizdagi iqtisodiy barqarorlik va boshqalar.

Bank aholining bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish orqali o'z ixtiyoriga juda katta miqdordagi moliyaviy va kredit resurslarini to'playdi.

Kredit muassasalarining ko'payishi va ular o'rtasidagi mijozlar uchun konkurensiya sharoitida aholi pul mablag'larini hojlagan kredit muassasiga qo'yishni tanlash huquqi ortib boradi. Aholi o'zining ortiqcha pul mablag'ini istagan shaklda joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi davrda jamg'armalar jalb qilishning 3 ta asosiy yo'li mavjud: bank muassasalarining omonatlari, sug'urtalar va qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi jamg'armalardir.

Bundan tashqari, omonatchilar jamg'arma qilayotganlarida inflyasiyaning omonatga ta'siriga ham katta e'tibor beradilar. Banklar o'z navbatida, ba'zi jamg'arma shakllari uchun qo'shimcha rag'batlantirish joriy qilish orqali, jamg'arma strukturasi ma'lum o'zgarishlar kiritish mumkin. Umuman, aholi doimo o'ziga qulay, daromadli jamg'arma shakllaridan foydalanishni afzal ko'radi. Jamg'arma bozori egalari esa shunday jamg'arma shakllarini tashkil etish va aholining pul mablag'larini o'ziga jalb qilish uchun doimo izlanish olib borishi kerak, jalb qilingan bu pul mablag'lari ular uchun eng arzon va asosiy kredit hamda moliyaviy resurs bo'lib hisoblanadi.

Biz shu bilan bir qatorda aholi omonatlar jalb etishning mohiyati, ahamiyati, omonat turlari to'g'risida fikr yuritdik. Shu bilan birga tijorat banklari tomonidan aholi omonatlari qabul qilish zaruriyatini qisqacha bo'lsada izoxladik. Tijorat banklarining depozitlarga bo'lgan extiyoji va uni qondirishda aholi omonatlari muhim rol o'ynaydi.

Talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag'ni qo'yish eki olishi mumkin;

- depozit muddati chegaralanmagan;
- kam miqdorda foiz to‘lanadi;
- bu turdagi depozitlar bo‘yicha Markaziy bankga o‘tkaziladigan majburiy rezervlar salmog‘i yuqori va boshqalar.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo‘yicha o‘zgarmas (depozit siësatida ko‘rsatilgan) foiz to‘lanadi; - joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;
- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to‘lash bo‘yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to‘lanishi mumkin;
- mablag‘lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo‘naltiriladi; - majburiy rezerv normasi nisbatan past bo‘lishi mumkin va boshqalar.

Tijorat banklari faoliyatidagi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, depozit mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha ishlar hisoblanmoqda va yirik tijorat banklari bu borada muvaffaqiyatli raqobat qilmoqdalar.

Respublikamizda banklarning depozit va unga bog‘liq amaliyotlari quyidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi:

-O‘zbekiston Respublikasi Fuqorolik qodeksi: 759-770, 771-789, 327 Moddalar, 29,08,1996 yil 257-1

-O‘zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi» qonun, 1996 yil 25 aprel

-«O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi (2711)yo‘riqnoma. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 26.08.2015.

-«Bank depozit sertifikatlarini chiqarish, ro‘yxatga olish va muomalasi tartibi» to‘g‘risida «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 24.12.1994, № 103, «O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 09.11.1998, № 522 va boshqalar.

Talab qilib olguncha depozitlar bank jalb qilingan mablag‘lari tarkibida ko‘proq kismini tashqil qiladi. Shu bilan birgalikda ushbu depozitning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ulardagi mablag‘lar egalari tomonidan itsalgan vaqtda talab

qilib olinishi va o'z extiëjlari uchun ishlatilishi mumkin. Shuning ushbu depozit turi banklar uchun tashqiliy xuquiy asosiga ko'ra boshqalariga nisbatan ancha arzon resurs turi hisoblanib, bugungi kunda ushbu omonat turi bo'yicha ularning egalari banklarning depozit siësatlaridan kelib chiqqan holatda turlicha belgilanib ulardagi qoldiklar uchun o'rtacha yillik 10% atrofida foiz to'lanmoqda.

"Hamkorbank" ATB yuridik va jismoniy shaxslarga yangi bank xizmat turi - depozit yacheykalarini taqdim etadi. Depozit yacheykalarida ishga doir hujjatlarni, qimmatli qog'ozlarni, pul mablag'larini, zargarlik buyumlarini, san'at asarlarini va noyob buyumlarni, axborot tashuvchi elektron manbalarni va, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq keladigan boshqa qimmatliklarni saqlash mumkin.

Dunyo bo'ylab millionlab ishbilarmon odamlar o'zlarining qimmatli buyumlarini banklardagi depozit yacheykalarda saqlab kelishadi. Mehnat ta'tiliga chiqqan, xizmat safariga ketayotgan yoki shunchaki xonadoningizda mavjud bo'lgan qimmatliklarning saqlanishidan xavotir olgan hollarda Siz bankimizdagi depozit yacheykalaridan foydalanishingiz mumkin.

Bankning depozit yacheykalari saqlanadigan ombor yacheyka ichida saqlanayotgan narsalarning to'laligicha daxlsizligini ta'minlovchi, dunyo talab va standartlariga to'laligicha javob beradigan zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan. Bank yacheykalarining ijaraga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar boshqa mijozlar va boshqa shaxslardan sir tutilishini ta'minlaydi hamda qimmatlikni yacheykaga joylashtirishda joylashtirilayotgan buyumlarning ro'yxati tuzilmaydi. Mijoz qimmatliklar bilan ishlarni o'zi mustaqil tarzda amalga oshiradi.

## **II BOB. TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARINING TAHLILI.**

### **2.1. Tijorat banklari tomonidan depozitga mabla'glarni jalb etishning hozirgi holatining tahlili.**

Tijorat banklari resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil qiladi. Har bir tijorat banki o'z faoliyatida jalb qilingan mablag'lar muhim ahamiyat qasb etadi, chunki tijorat banklarining o'z mablag'lari asosan bankni tashqil qilish va shakllantirish bilan bog'liq vazifani amalga oshirsa, jalb qilingan mablag'lar esa bankning barqaror daromad olish imkoniyatini ta'minlab turadi. SHuning uchun ham har bir tijorat bankining jalb qilingan mablag'larini doimiy tahlil qilib borish bankning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Tijorat banklarida puxta o'ylangan depozit va kredit siyosati bo'lishini talab qiladi, banklarda ushbu siyosatlarning to'g'ri tashqil etilganligi ular orasidagi bog'liqlik va nisbatning optimal tanlanganligini banklarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'lishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini bankga jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalar depozit operatsiyalari deyiladi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashqil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustaxkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilganidir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda ob'ekt va sub'ektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarning sub'ektlari bo'lib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxonasi va tashqilotlari;
- moliya, sug'urta, investitsion va trust kompaniyalar;
- xususiy korxonasi va tashqilotlar;

- aksiyadorlik kompaniyalari;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qo'shma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashqilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari qatnashadilar.

Depozit operatsiyalarining ob'yekti bo'lib extiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashqil qilishning asosi bo'lib, balans likvidliligi, mijozlarning moliyaviy axvolining barqarorligi hisoblanadi. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining depozit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi, ya'ni:

- depozit operatsiyalari bank daromadining oshishga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;
- bank balansining likvidliligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli quyilmalarga e'tibor qaratish lozim;
- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog'liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralarini ko'rish zarur va boshqalar.

Tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqish, birinchi navbatda, depozit siyosatining umumiy va xususiy mezonlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Bunda asosiy e'tibor umumiy mezonlarni belgilab olishga qaratiladi.

Tijorat banklari depozit siyosatining umumiy me'zonlariga quyidagilar kiradi:

- bank faoliyatining barqarorligi, ishonchliligini saqlab turish maqsadida uning depozit, kredit va boshqa aktiv operatsiyalarining o'zaro bog'liqligi;
- bank risklarini minimallashtirish maqsadida uning resurslarini diversifiqatsiya qilish;
- bank depozit portfelini mijozlar, mao'sulotlar va bozorlar bo'yicha segmentlashtirish;
- mijozlarning turli guruhlariga nisbatan tabaqali yondoshuv;

- bank tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar raqobatchi banklarning xizmatlaridan fark qilishi lozim;

- barqaror va nobarqaror resurslarning oqilona nisbatini shakllantirish zarur;

- bank depozit portfelining shakllanishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni hisobga olish lozim. .

Tijorat banki depozit siyosatining xususiy mezonlariga quyidagilar kiradi;

- mijozlarning alohida guruhidan depozitlar jalb qilishni qo'chaytirish;

- bankning depozit siyosatini alohida olingan hududlarda faollashtirish;

- omonatlarning aniq turlari bo'yicha mablag'lar jalb qilishni qo'chaytirish.

Tijorat banklarining depozit siyosatiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil Markaziy bankning majburiy zahira siyosati hisoblanadi. Majburiy zahira stavkalarining oshirilishi tijorat banklarining depozitlarga foiz to'lash imkoniyatini pasaytiradi.

Bundan tashqari, majburiy zahira stavkalarining oshirilishi banklarning likvidligini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham rivojlangan industrial mamlakatlarda, xususan, AQSh, Germaniya va Avstriyada majburiy zahira stavkalari depozitlarning summasi va muddatiga bog'lik ravishda tabaqalashtirilgan. Depozitning summasi qanchalik katta va muddati qanchalik qisqa bo'lsa, unga nisbatan o'rnatilgan majburiy zahira stavkasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

“O'zbekiston Respubliqasi Markaziy banki to'g'risida“gi qonuniga ko'ra Markaziy bank o'zi belgilagan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to'g'risida banklarga ko'rsatma beradi. Markaziy bankda depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlarning eng kam miqdori Markaziy bankning normativ hujjatlari bilan belgilanib, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Majburiy rezervlarning miqdorlari jalb etilgan mablag'lar va depozitlarning har bir toifasi bo'yicha barcha banklar uchun bir xildir.

Pul massasining maqsadli ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda 2008 yilning 1 noyabridan boshlab majburiy zaxiralar normasi yuridik shaxslarning

milliy va xorijiy valyutada jalb qilingan depozitlari uchun tabaqalahtirildi. O‘zbekiston Respubliqasi Prezidentining 2009 yil 28 iyo’ldagi 1166-sonli Qaroriga asosan pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda va tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilishni rag‘batlantirish maqsadida 2009 yilning 1 sentyabridan boshlab tabaqalashtirilgan majburiy zahiralarning normasi joriy etildi, ya’ni :

- 1yilgacha depozitlardan 15 foiz
- 1 yildan 3 yilgacha depozitlardan 12 foiz
- 3 yildan ortiq muddatga qo‘yilgan depozitlardan esa 10,5 foiz qilib

belgilandi.

## 2-jadval

### O‘zbekiston Respubliqasi Markaziy banki majburiy zahira talablarining o‘zgarishi, (foizda)<sup>4</sup>

Depozit turi	2000y.	2004 y.	2005 y.	2008 y.	2009-2017
Jamg‘arma depozitlari	25 %	18 %	15%	15 %	15,12,10.5 %
Muddatli depozitlar	25 %	18 %	15 %	15 %	15,12,10.5 %
Xorijiy valyutadagi depozitlar	0 %	0 %	8 %	15 %	15,12,10.5 %

<sup>4</sup> Markaziy bank ma’lumotlariga asosan tayyorlandi

Demak, muddatli depozitlarga nisbatan past zahira stavkalarining belgilanishi majburiy zahira stavkalarining banklarning depozit bazasiga nisbatan yuzaga keladigan salbiy ta'siriga barham beradi va o'z navbatida, banklarning muddatli depozit hisobraqamlaridagi mablag'lar miqdorining oshishiga, joriy depozit hisobraqamlaridagi mablag'lar miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, milliy valyuta qo'rsining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Majburiy rezerv talablari tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda pul-kredit siyosatining muhim instrumentlaridan biri sifatida qo'llanilmoqda.

2017 yilda inflyasiya va pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqib htijorat banklarida o'zoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida, majburiy rezervlar normasi, yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va 1 yilgacha bo'lgan muddatga jalb qilingan depozitlar uchun – 15 foiz, 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun – 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi.

Tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadigan asosiy omillardan yana biri bank xizmatlari milliy bozoridagi o'zgarishlar hisoblanadi. Depozit mahsulotlari sonini oqilona shakllantirishga sotish yo'llari va texnologiyalari katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mamlakatimiz banklari omonatining har bir turiga uning muhim vazifalaridan biri – samarali stavka, yoki qo'shimcha mablag' qo'yish va mablag'larning bir qismini olish imkoni, servis imkoniyatlari yoki omonatlarning muddatlilik variantlari asos bo'ladi.

Banklarda barqaror resurs bazasini shakllantirish va uni yanada kengaytirish, aholining bo'sh pul mablag'larini bank omonatlariga jalb qilishni yanada rag'batlantirish va kafolatlashga doir qabul qilingan Prezidentimizning qator Farmon va Qarorlari aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat qasb etib kelmoqda.

Depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining dinamikasida ham o'sish holatlari kuzatildi. Xususan, iyul-sentabr oylarida yuridik va jismoniy shaxslarning jami muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 11,9 foizdan mos



ravishda 12,9, 13,5 va 15,2 foizgacha ko'tarildi. Bunda o'sish, asosan, yuridik shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalarining birinchi yarim yildagi o'rtacha 6,4 foizdan 11,4 foizgacha ko'tarilishi bilan izohlanadi.

Mamlakatimiz banklarining barqaror holati, bank tizimiga bo'lgan ishonchning yildan-yilga oshishi hamda aholi real daromadlarining o'sib borayotgani aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilishning mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda. 2017 yilda ham bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlarda belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishiga qaratildi. Xususan:


- aholi va tadbirkorlik subektlari hamda investorlarning mablag'larini bank aksiyalari va depozitlarga jalb qilish orqali banklarning qapitallashuv darajasini oshirish hamda resurs bazasini kengaytirish;

- banklarning investitsiya jarayonlarida, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik va texnik qayta jixozlashdagi ishtirokini yanada kengaytirish va kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-qo'vvatlash;

- banklarda samarali nazoratni amalga oshirish, bank infrato'zilmalarini kengaytirish, bank xizmatlari sifatini oshirish va mijozlarga yangi qo'layliklar yaratish;

- hisob-kitoblar tizimini yanada takomillashtirish, naqd pullarning bank aylanmasiga jalb etilishini yanada kengaytirish;

- banklarni yakqa tartibda baholash milliy reytingiga va xalqaro reyting kompaniyalarining reytinglariga ega bo'lishlarini taminlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.



**1-rasm. Tijorat banklaridagi jami depozitlar 2018 yil 1 yanvar holatiga(mlrd.so'm)<sup>5</sup>**

Tijorat banklarining jami depozitlarini yildan yilga o'sib borayotganini bu rasmda ko'rishimiz mumkin hususan, 2016 yilga nisbatan 36,341 mlrd.so'mdan 2017 yili 58.668 mlrd.so'mga o'zganini ko'rishimiz mumkin ya'ni 2016 yilga nisbatan 61 foizga ko'paygan.

Banklarning kapitali va mijozlardan jalb qilingan depozitlar hajmining o'sishi respubliqa iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlarida ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya qilish, istikbolli va yo'qori samarali investitsiya loyixalarini amalga oshirish, istemol maxsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-qo'vvatlashda banklar ishtirokini yanada kengaytirish imkonini bermoqda.

<sup>5</sup>www.cbu.uz ma'lumotlariga asosan muallif tamonidan tayyorlandi.

Aholi qo‘lidagi bo‘sh pul mablag‘larining bank aylanmasiga jalb qilinishini qo‘chaytirish tijorat banklari zimmasiga depozit siyosatini yaxshi yo‘lga qo‘yish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar doirasi va sifatini oshirib borish mas‘uliyatini yuklaydi

## **2.2. CHEKI “Hamkorbank” ATBning depozit operatsiyalari tahlili**

ATB “Hamkorbank”ning depozit operatsiyalari: Tijorat bankining depozit operatsiyalariga omonatlarga pul mablag‘larini jalb qilish (passiv depozit operatsiyalari) va mavjud mablag‘larni boshqa kredit tashkilotlariga joylashtirish kiradi. Jami aholi omonatlari qoldiqlari (plastik kartochka qoldiqlarini hisobga olgan holda) 153,4 mlrd. so‘m bo‘lib, o‘tgan yil shu davrga nisbatan 1,2 barobarga yoki 25,07 mlrd.so‘mga o‘sgan. ATB "Hamkorbank" 2008-2017 yillardagi depozit qo‘yilmalarining foizda o‘zgarishi dinamikasini trend chizig‘i bilan umumlashtiradigan bo‘lsak u holda keyingi yillar uchun depozit qo‘yilmalarini bashoratlashimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, 2017-yilga kelib bankning depozit qo‘yilmalari 6,5 mlrd. so‘m. Dinamikaning o‘sib borish tendensiyasiga egaligini utgan yillar bo‘yicha Respublikadagi jismoniy va yuridik shaxslarning omonat qo‘yilmalarining o‘sib borish tendensiyasi ko‘rsatib turibdi. Yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlar asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklari depozit siyosatini olib borishda hali hamon qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqda. Tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning oldini olib, mamlakatimizda bank ishining samaradorligini oshirish asosida xalqaro bank amaliyotiga mos keluvchi bank tizimini yaratishni taqozo qiladi.

Tijorat banklari resurslarining muddati jihatidan nobarqaror mablag‘lari qatoriga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqaqalardagi mablag‘larni kiritishimiz mumkin. Banklar mazkur turkumga kiruvchimablag‘lardan kredit resursi sifatida foydalanganda ularning likvidsizlik

holatiga tushib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Chunki mijoz ushbu hisobvaraqlardagi mablag‘larni bank kutmagan paytda qisman yoki to‘lig‘icha ko‘chirish haqida bankka topshiriq berishi yoki naqd pul shaklda berishni talab qilish huquqiga ega. Shu jihatdan, ushbu hisobvaraqlarda saqlanadigan mablag‘lar muddat jihatidan nisbatan nobarqaror resurslar turkumiga kiritiladi

**ChEKI “Hamkorbank” ATBning passivlar tarkibidagi o‘zgarish dinamikasi<sup>7</sup>  
(ming so‘mda)<sup>6</sup>**

**3-jadval**  
(mln. so‘m)

№	Moddalar	2016 yil		2017 yil	
		summa	foiz	summa	foiz
	Jami depozitlar	2795514	69.6	3287174	58.9
	Boshqa banklarga to‘lanadigan mablag‘lar	440	0.01	100979	1.8
	Boshqa majburiyatlar	16453	4.1	64722	0.1
	Jami majburiyatlar	3582071	89.2	4999200	89.7
	Xususiy kapital				
	Oddiy aksiyalar	74868	1.8	74868	1.3
	Sotish uchun amalda mavjud bo‘lgan investitsiyalar bo‘yicha qayta baxolashga oid zaxiralar	125427	0.03	179076	0.03
	Taqsimlanmagan foyda	124064	3.9	138552	2.4
	Jami xususiy kapital	432901	10.7	573035	10.2
	Jami majburiyatlar va xususiy kapital	4014973	100	5572236	100

Jadvaldan korinib turibdiki ChEKI “Hamkorbank” ATBning passivlar tarkibidagi o‘zgarish sezilarli darajada o‘sgan xususan jami depozitlar 2795514740so‘mdan, 2017yilda 3287174990 so‘mga oshgan. Xususiy kapital 2017 yilda 573035222.0 so‘mmitashkil qilgan bu ko‘rsatkich 2016 yilda

<sup>6</sup>ChEKI “Hamkorbank” ATBning yillik hisobotlari ma'lumoti

432901926 so'mni tashkil qilgan edi. Bu ozgarishlar bankning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Jami majburiyatlar va xususiy kapital 2016 yilga nisbatan 2.23 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

**CHEKI "Hamkorbank" ATB depozitlarining tarkibi va dinamikasi(mln so'mda)<sup>7</sup>**

4-jadval

	Depozitlarning turlari	2015y	2016 y	2017 y	2017-yilda 2015-yilga nisbatan o'zgarishi,
1.	Talab qilib olinguncha depozitlar	1,134,698	1,872,455	1,976,996	842,297
2.	Muddatli depozitlar	692,891	816,044	988,630	295,738
3.	Jamg'arma depozitlari	34,170	107,015	321,547	287,377
	Depozitlar-jami	100,0	100,0	100,0	X

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, Talab qilib olinguncha depozitlarning bank depozitlari umumiy hajmidagi salmog'ining ko'tarish tendensiyasi mavjud. Tahlil qilingan davr mobaynida ularning salmog'ini 842,297,819.0 so'mga ko'tarish yuz berdi.

<sup>7</sup> "Hamkorban" ATB yillik moliyaviy hisoboti

Muddatli depozitlar salmog'i ham 2015 yilga nisbatan 295,738,911.0 so'mga oshgan bu esa bankning barqaror resurslari ham oshganidan dalolat beradi.

Jamg'arma depozitlar ham 2015 yilga nisbatan 287,377,041.0 so'mga ko'paygan bularning hammasi bankning deposit siyosati yaxshi olib borilayotganini bildiradi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, CHEKI "Hamkorbank" ATB da tahlil qilingan davr mobaynida talab qilib olinguncha depozitlarning bazasi umumiy hajmidagi salmog'ining sezilarli darajada oshishi yuz berdi. Bu esa ijobiy holat hisoblanadi.

Chunki talab qilib olinguncha depozitlar salmog'ining oshishi muddatli va jamg'arma depozitlarining o'sishi bilan bog'liq. Mazkur holatlar, pirovard natijada, bankning resurslar bazasini mustahkamlanayotganligidan, bank depozit siyosatining samaradorligini oshirish yuzasidan sezilarli tadbirlarni amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, tahlil qilingan davr mobaynida jamg'arma depozitlarining depozitlar umumiy hajmidagi salmog'ini 321,547,731.0 so'mga yetganligi va tahlil qilingan davr mobaynida ancha o'sganligi ijobiy holat hisoblanadi. Buning boisi shundaki, birinchidan, jamg'arma depozitlarining asosiy qismini tashkil etuvchi aholining muddatli omonatlari arzon va barqaror resurs manbai hisoblanadi, ikkinchidan, respublikamizda aholining ixtiyoridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari infl yatsion jarayonlar uchun jiddiy manba hisoblanadi.

Rivojlangan industrial mamlakatlar, xususan, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Avstriya mamlakatlarida aholi to'lovlarining asosiy qismi naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mazkur mamlakatlar amaliyotida naqd pullar inflyatsion jarayonlar uchun manba bo'lib hisoblanmaydi.

Respublikamizning boshqa yirik banklarida ham jamg'arma depozitlariga xos bo'lgan, yuqorida qayd qilingan holatni kuzatish mumkin. Tijorat banklari depozit siyosatining samaradorligini tavsiflovchi muhim omillardan biri depozitlarning bank passivlarining umumiy hajmidagi salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida depozitlar tijorat


banklari balansining passivida salmog‘iga ko‘ra birinchi o‘rinni egallaydi. Ikkinchi o‘rinda depozitsiz resurs manbalari turadi, uchinchi o‘rinni esa, bank kapitali egallaydi.

Moliyaviy jihatdan barqaror mablag‘lar tijorat banklarining asosiy foyda manbasini tashkil etish bilan birga, ularni kutilmaganda vujudga keladigan zararlardan himoya qilish imkoniyatini ham beradi. Ushbu mablag‘larga, yuqorida ta’kidlaganimizdek, banklarning ustav kapitalini, joriy yil va o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini, joriy yilning sof foydasi hamda muddatli va jamg‘arma (sertifi kat) depozitlarini kiritishimiz mumkin. Muddatli va jamg‘arma (sertifi kat) depozitlar banklar uchun muddati jihatidan ham moliyaviy manba hisoblanadi. Zero banklar, ushbu mablag‘larni likvidsizlikka tushib qolish muammosini o‘ylamasdan ma’lum muddatga kredit resurslari sifatida ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Moliyaviy jihatdan nobarqaror mablag‘lar turkumiga tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibidagi devalvatsiya zaxirasini kiritishimiz lozim. Chunki ushbu mablag‘lar milliy valyutaning kursi xorijiy valyutaga nisbatan o‘zgarishi natijasida vujudga kelib, bankning real mablag‘larini ko‘paytirmaydi. Shuningdek, tijorat banklari mazkur zaxiradan resurs sifatida foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Bank tomonidan mazkur mablag‘lar kredit resurslari sifatida ishlatilishi uni kutilmagan paytda likvidsizlik holatiga olib kelishiga sabab bo‘ladi. Mablag‘larni tashkil topish manbalari jihatidan qimmatli yoki arzon mablag‘lar guruhiga ajratish mumkin. Bu yerda asosiy e’tibor depozit operatsiyalari natijasida vujudga keladigan mablag‘larga qaratilib, yuqorida qayd etilgan nisbatan barqaror mablag‘lar tijorat banklari uchun qimmat resurs manbalarini tashkil etadi. Arzon resurs mablag‘lari turkumiga esa o‘zo‘ zidan aniqki nisbatan nobarqaror mablag‘lar kiradi.

Biz quyida ChEKI “Hamkorbank” ATB depozitlarining passivlar hajmidagi salmog‘ini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ChEKI “Hamkorbank” ATBda, tahlil qilingan davr mobaynida depozitlarning passivlar umumiy hajmidagi salmog‘i yaxshi ekanini ko‘rishimiz mumkin.



**2-rasm. CHEKI “Hamkorbank” ATB talab qilib olunguncha depozitlarining passivlar umumiy hajmidagi salmog’i.(mlrd so’mda)<sup>8</sup>**

Tijorat banklarining talab qilib olunguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlarga korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisob-kitob va joriy hisobvaraqlarida saqlanadigan pul mablag‘lari kiradi. Talab qilib olunguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlarga bank nisbatan kichik miqdorda, ayrim hollarda esa umuman foiz to‘lovlarini to‘lamaydi.

<sup>8</sup>“Hamkorban” ATB yillik moliyaviy hisoboti




Xalqaro bank amaliyotida ushbu depozit transaksion va chekli (chekoviy) depozit deb ham yuritiladi.

Muddatli depozitlarga qo'yiladigan mablag'larni qaytarib olish muddati oldindan kelishiladi. Ushbu depozit turining nomidan ham ma'lumki, depozit mablag'lar nisbatan uzoqroq muddatga qo'yilib ularning muddati kamida bir oyni tashkil etishi lozim. O'z navbatida banklar, ushbu depozit turi bo'yicha nisbatan yuqori foiz to'lovlarini to'laydi. Bank mazkur depozitga muddati tugaguncha saqlash uchun va oldindan ogohlantirish yo'li bilan muddati tugamasdan qaytarib berish haqida omonatchi bilan depozit shartnomasini tuzishi mumkin. Birinchi holatdagi depozit turida, bank depozit shartnomasida kelishilgan muddat tugaguncha omonatchining mablag'idan erkin foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Muddati tugagandan keyin omonatchi tomonidan ushbu mablag' talab qilib olinmasa, kelgusida ushbu hisobvaraqa talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqa tarzida ishlaydi.

Odatda, ushbu depozitlar bo'yicha muddatlar har xil bo'lib, mablag'lar qancha ko'p saqlansa, ularning foiz to'lovlari shunchalik yuqori bo'ladi. Albatta, bu yerda pul bozoridagi resurslarning taklifi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish hisob stavkasi miqdori asosiy rol o'ynaydi. Shunga asosan, tijorat banklari depozit siyosatini o'rnatadi.

Muddatli depozitlar oldindan ogohlantirish asosida muddatidan oldin bankdan qaytarib olinishi ham mumkin. Bunda bank mijozga depozit mablag'ini oldindan qaytarib olganligi uchun jarima tarzida shartnomada kelishilgan foiz to'lovlarini to'lamaslik huquqiga ega bo'ladi.

Jismoniy shaxslar o'rtasida omonatlarning eng rivojlangan turi bu jamg'arma depozitlar hisoblanadi. Jamg'armaning ushbu turida bank omonatchiga uning mablag'ining harakati, qoldig'i va unga hisoblangan foizlar haqidagi ma'lumotni aks etiruvchi jamg'arma daftarchasini beradi.



**3-rasm. CHEKI “Hamkorbank” ATBning muddatli depozitlari o’sish.(mlrd so’mda)<sup>9</sup>**

Jamg’arma depozitlarining asosiy turi sifatida rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qo’llanilayotgan depozit sertifi katlarini ko’rsatish mumkin. Hozirgi kunda respublikamiz tijorat banklari amaliyotida ham depozit sertifi katlari joriy etilib bank resurslarining manbalarini shakllantirishda foydalanilmoqda.

Depozit sertifi katlari bo‘yicha foizlar miqdori depozit summasining hajmi, muddati, shuningdek, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasiga bog‘liq. Boshqa depozitlar guruhiga banklarning yuqorida qayd etilgan depozitlaridan tashqari

<sup>9</sup> “Hamkorban” ATB yillik moliyaviy hisoboti

mijozlarning akkreditiv bo'yicha talab qilib olinguncha bo'lgan davrdan foizsiz depozitlar, shuningdek, amaldagi qoidalarga muvofiq turli ishonchli mablag'lar va shunga o'xshash boshqa moliyaviy operatsiyalar va majburiyatlar bo'yicha depozit hisobvaraqlarini ochishi mumkin.

Yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar. Tijorat banklarining resurslarga bo'lgan ehtiyoji depozit operatsiyalari natijasida to'liq qondirilmaydi ular mamlakat yoki xalqaro moliya bozoriga, Markaziy bankka va banklararo pul resurslari bozoriga murojaat qiladi.

### **III BOB. TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.**

#### **3.1. Tijorat banklari o‘rtasida depozit operatsiyalarini jalb qilish bo‘yicha raqobatni rivojlantirish istiqbollari.**

O‘zbekiston sharoitida bartaraf etishning ustuvor qonunchilik asoslari, shuningdek tarixiy, iqtisodiy va huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari muhim huquqiy asos vazifasini bajarayotganligini ta’kidlash joiz. Belgilab berilgan chora tadbirlarga asosan iqtisodiy o‘shishning uzoq muddatli barqaror sur‘atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta’minlash, tarkibiy o‘zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, halqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infrato‘zilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, aholi bandligini ta’minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko‘rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish; aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag‘batlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklariga jalb qilishning davlat tomonidan ta’sirchan va o‘zoq muddatli rag‘batlantirish huquqiy mexanizmlarini to‘liq ishga solish, banklarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish, ya’ni investitsiya loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish va moliyalashtirishni tashkil etish bo‘yicha tijorat banklarining maxsus xizmat ko‘rsatish faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish taqozo etiladi. Binobarin, aholining daromadlarini ko‘paytirish, fuqarolar va tadbirkorlar mulk huquqining kafolatlari, kasanachilik faoliyatining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatida sanoat

mulkiga bo'lgan huquqni xususan, ixtiro, foydali model sanoat namunasini huquqiy jihatdan muhofaza qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amaliyotda tatbiq etish ya'ni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish barobarida tejamkorlik tamoyilini huquqiy ta'minlashga erishish lozim. Eng muhimi, ularning eksportga mahsulot ishlab chiqarish borasidagi faoliyatini har tomonlama davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari amaliyotda o'zining samarasini bermoqda. Aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilishning shakl va uslublarini takomillashtirish va yangilash bank tizimini isloh qilishning muhim vazifasi sifatida belgilanadi. Binobarin, bu o'z ish faoliyatini jismoniy shaxslarga bank xizmatlari ko'rsatish asosida tashkil etgan ChEKI "Hamkorbank" ATB uchun ham nixoyatda dolzarb vazifadir.

ChEKI "Hamkorbank" ATB raqobatchilik sharoitida samarali faoliyat yurgizishi uchun aholi bo'sh pul mablag'larini jalb etishning shakl va uslublarini yangilashi hamda yaxshilashi lozim. Bugungi kunda jamg'armalar mohiyati kelajakda foyda ko'rmoq uchun kundalik iste'molda tejamkorlik qilishga bog'lik, degan mazmunda talkin etilmoqda. Masalaning bunday qo'yilishi ob'ektiv ravishda depozit foizlari stavkasini kayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur sharoitda belgilangan depozit foizlari stavkasi jalb etilgan jamg'armalarni inflyasiya ta'siridan saqlashidan tashqari, ularning o'sib borishini ham ta'minlashi lozim. Depozit foizlar qiymatini belgilash vaqtida ushbu qiymatni belgilab beruvchi asosiy omillarning ta'sirini e'tiborga olish kerak. Bank faoliyatining rentabelligi, inflyasion jarayonlar passivlarni operativ boshkarish, shular jumlasidandir. Taklif etilayotgan ushbu modelning o'ziga xos hususiyati shuki, unda inflyasion o'zgarishlar ko'rsatkichi normativ foiz stavkasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bank sohasida qo'llanilayotgan amaliy faoliyatning tahliliy xulosasi shuni ko'rsatmoqdaki, jamg'armalarning ayrim xillarini mijozlar uchun qiziqarli qilish maqsadida inflyasion ta'sirini e'tiborga olib, sarmoya va jamg'arma uchun to'lanadigan foizlar miqdori hisob raqamini yopish yoki uning mablag'lari bilan moliyaviy operatsiya bajarish chog'ida qayta ko'rib chiqqan ma'qul. SHubxasiz, bank amaliyotida depozit foizlarning «antiinflyasion» modeliga keskin burilish

tarzida o'tish oqibatida ushbu foizlar bilan bog'lik sarf-harajatlar tushadigan foyda miqdoridan oshib ketadi. Shuni nazarda to'tgan holda, bank foizlari stavkasini belgilash siyosatini uddaburonlik bilan amalga oshirib, inflyasion o'zgarishlar ta'sirini e'tiborga oluvchi yangi modellarini asta-sekin tatbik etgani maqsadaga muvofik. «Antiinflyasion» modellarning aynan qaysi xili ma'qulligini aniqlash uchun mazkur omilarni e'tiborga olish kerak: jamg'armaning u yoki bu xilini tatbik etishda bankning iqtisodiy manfaatdorligi hamda jamg'armaning ijtimoiy ahamiyatga molik ekanligi. Faraz qilishimizcha, bank jamg'arma kapitalini ishonchli, samarali loyixalarga joylashtirish natijasida foiz stavkalarining «antiinflyasion» modelini jamg'armalarning barcha turlariga nisbatan qo'llash mumkin bo'ladi. ChEKI "Hamkorbank" ATB oshiriladigan jamg'arish operatsiyalarining tahlili va hozirgi vaqtda jamg'arish jarayonlarida ko'zatilayotgan o'ziga xos dinamik o'zgarishlarni o'rganish bank amaliyotini takomillashtirish yuzasidan bir qator aniq muloxazalarni bildirish uchun asos bo'ldi. Xususan, badavlat mijozlar uchun mo'ljallangan eksklyuziv xizmat turlarini kengaytirish hamda takomillashtirish o'rinlidir. Buning uchun valyuta bozorida qimmatli qog'ozlar savdosi bilan bog'lik trast operatsiyalarini rivojlantirish kerak bo'ladi. Jamg'arish jarayonlarida milliy so'mning qimmatini oshirish maqsadida banklarda milliy valyuta ko'rinishidagi jamg'armalarni inflyasiya ta'siridan saqlovchi turli xil bank mahsulotlarini yaratish taklif etilgan. Aholi o'rtasida o'z pul mablag'larini chet el valyutasi ko'rinishida saqlash odatiy tus olgani sir emas. Shuning uchun bank mijozlariga milliy valyuta ko'rsatgichlari tebranishlarini nazarda tutib muhofazali so'm jamg'armalarini taklif etish darkor. Uzoq muddatli jamg'armalarni uyushtirish jarayonlarini takomillashtirish uchun jamg'armalarni saqlash muddatining yakunida inflyasiya ta'sirini nazarga olib, qo'shimcha qiymat to'lashga imkon beruvchi depozit stavkalarini tayinlash shart bo'ladi. Raqobatbordoshlikni oshirish va alohida saqlanayotgan chet el valyutasini jalb qilish maqsadida yangi bank mahsuloti sifatida valyutada yuutuqli jamg'armani taklif etish mumkin. Jamg'armalar bozorining yangi sohalarini egallashga intilish lozim. Fikrimizcha, ushbu taklif, muloxazalarimiz nafakat ChEKI "Hamkorbank"

ATB boshka barcha tijorat banklari oldida turgan aniq masalalarini xal etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ular aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilishning shakl va uslublarini takomillashtirishning metodologik asosini tashkil etadi. Hozirgi kunda tijorat banklari o'z depozit siyosatini yurgazishda asosan aholi qatlamlari, tuman aholi soni va ularning daromadlarini e'tiborga olish zarur. Tijorat banklari aholi ko'lidagi bo'sh pul mablag'larini yig'ishda ko'p va turli xil omonatlar yaratish va o'z xizmat doirasini kengaytirish lozim. Ma'lumki aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'ni hozirgi kunda tijorat banklariga bo'lgan e'tibor pasaygan bir vaqtda aholi bunday mablag'larni yuqorida aytganimizdek har xil yangi omonat turlarini yaratgan holda amalga oshirmoqda. Misol tariqasida biz tomondan taklif etilayotgan yangi omonat turlari, jahon amaliyot sinovidan o'tgan plastik kartochkalar, yangi bank tomonidan chikarilayotgan depozit sertifikatlar buning hammasi hozirgi zamon depozitga jalb qilish usullaridan biri hisoblanadi. Bunday omonatlarni qanchalik tijorat banklari ko'prok taklif etsalar, aholi o'rtasida targ'ibot va tashvikot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'ysalar va shu omonatlarni yaxshi reklama qilsalar hamda qilingan reklamaga amal qilgan banklarga bo'lgan aholi ishonchi ortadi va yangi ochilgan omonatlarga mablag' jalb qilish engil ko'chadi.

Barcha tijorat banklari hozirgi kunda raqobatdosh bo'lishi uchun o'zining yangi omonat turlarini taklif qilishadi. Birok, katta foizga jalb qilingan mablag'larni kanday aktivlarga joylashtirish kerak degan savol paydo bo'ladi. Omonatlar rivojlanishida uning kafolatlanganligi muhim rol o'ynaydi, sababi bu kafolatlanish aholi bankka bo'lgan ishonchini ortiradi. Hozirgi kunda ChEKI "Hamkorbank" ATB tomonidan qabul qilingan omonatlar barchasi kafolatlangan.

Mamlakatimizda odamlarning bo'sh pul mablag'larini bank omonatlariga ko'prok jalb qilish, jozibador omonatlarni muntazam joriy etish orkali ularning manfaatdorligini oshirish hamda eng muhimi omonatchilarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik bazasini har tomonlama takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmokda. Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan aholining bo'sh pul mablag'larini banklardagi omonatlarga

jalb qilgan holda ularga ko‘shimcha daromad olish imkoniyatlarini yaratish yulida izchil sa’y-harakatlar olib borilmokda.

Buning zamirida xalk farovonligini oshirish, aholining turmush darajasini yuksaltirish maqsadi yotgani e’tiborga molikdir.

Jaxon tajribasi shuni ko‘rsatib turibdiki, aholi mablag‘larini jalb qilishning zamonaviy usullarining takomillashuvining birlamchi sharti bu banklar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirilishidir. Chunki amaldagi tijorat banklariga xos an’anaviy, bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatish sharoitida rag‘batlantiruvchi usullarning bank tizimida ko‘llanishi ko‘shimcha mijozlar jalb qilishning yangi boskichini boshlab berdi. Bugungi kunda bank tizimida aholii omonatlarini muxofaza qilish mexanizmlarini jiddiy islox qilish zaruratini vujudga keltiradigan bir qancha sabablar paydo bo‘ldi.

Sabablarning birinchi guruhi tabiiy-tarixiy bo‘lib, ular bank faoliyatining murakkablashishi va yangi an’anaviy bank xizmatlari bozoridan raqobatning rivojlanishi bilan bog‘lik. Banklarni tashkil qilishning faollashishi natijasida asosiy bank xizmat turlari ko‘payib ketdi va sifatli xizmat ko‘rsatish borasida raqobat kurashiga aylandi, buni esa barcha banklar ham amalga oshira olmaydi. Shu bilan birga bank biznesi tobora murakkablashib bormokda. Bozorda ancha murakkab moliyaviy vositalar vujudga kelmokdagi, ular bank xodimlariga juda qat’iy talablar qo‘ymokda. Inflyasiyaning o‘zgaruvchanligi, bozorning barqaror emasligi sharoitida noto‘g‘ri boshqaruv qarori bank uchun halokatli bo‘lib, bankrotlikka olib kelishi mumkin.

Sabablarning ikkinchi guruhi anik tarixiy tavsifga ega bo‘lib, banklar faoliyatining tashqi sharoitlari yomonlashgani bilan bog‘lik. Iktisodiy tushkunliklar korxonalarini to‘lovga noqobilligi bilan bog‘lik ravishda kreditlar kaytmasligi xatarining keskin oshishiga olib keladi. To‘lov inqirozi bank sektoriga o‘tishi va ko‘pgina kredit muassasalarini og‘ir ahvolga solib ko‘yishi mumkin. Ayniqsa sanoat mijozlari bilan bog‘lik banklarning kreditlar kaytmasligidan katta zararlar ko‘rish ehtimoli bor. Odatda, rivojlangan iktisodiy davrda ko‘pgina tijorat banklari yirik korxonalar va sanoat birlashmalari tomonidan o‘z moliyaviy muammolarini



hal qilish, ya'ni bank orqali ko'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadida tashkil etiladi. Bu banklar imtiyozli kreditlar olishga majbur qiladigan aksiyadorlar va paychilar tomonidan kuchli tazyikka duch keladi.

Banklarning mijozlar bilan munosabatlarida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofik:

Birinchidan, bank muassasalarida fuqarolar omonatlari bo'yicha bitimlarni yozma ravishda tizim majburiyatini belgilash lozim. Bank va omonatchi o'rtasida bitimning asosiy shartlari tomonlarning huquq va majburiyatlari aks etgan shartnoma to'zilishi mumkin. Agar hisobvarak omonatchini yozma arizasiga asosan ochilgan bo'lsa, bank unga hisobvaraqt tartibi yoritilgan va tomonlar munosabatlari ko'rsatilgan yo'l-yo'riklar yoki omonat bo'yicha shartlarning bir nusxasini berishi shart. Mijoz hisobvarak ochilishidan avval mazkur hujjat bilan tanishib chiqish va yozma ravishda o'z roziligini bildirishi kerak. Afsuski xozir ba'zi banklar mijoz bilan yozma bitim to'zmaydi, bu esa mijozlarning huquqiy tomonidan himoyasini kafolatlamaydi.

Ikkinchidan, banklarning hususiy va korporativ mijozlarga o'zok muddatli majburiyatlari bo'yicha foiz stavkalarining kat'iy belgilab ko'yilishini ta'kidlash zarur. Inflyasiya va bank aktivlari bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarib turishi sharoitida bankning o'ziga olgan majburiyatlari keyinchalik xalokatli bo'lib, to'lovga noqobil qilib qo'yishi mumkin. Bankning mijoz bilan munosabatlarini takomillashtirishning uchinchi yo'nalishi, bankning omonatchiga uning birinchi talabi bilan shartnomadagi muddat tugamagan bo'lsa ham omonatni kaytarilish majburiyatidir. Bu fuqarolik kodeksiga kayd etilgan bo'lsa-da, amaliyotda ko'pincha bo'zilmokda. Muayyan banklar omonatchining muddati tugamagunga qadar o'z pullaridan foydalanishga yul ko'ymaydigan omonat turlarini amalga oshirmokda. Natijada omonatchida bankning ishonchliligiga shubxa uyg'onadi, o'zgaruvchan foiz stavkalari sharoitida omonatni muddatidan avval olish huquqini tan olish, ayniqsa zarurdir.

O'zbekiston aholisining yarmidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Bu yo'nalishdagi ishlar Germaniyada bolalarning bog'cha davridan boshlanadi, biz

o‘zimizda to‘plangan tajribani qo‘llashga, O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni maktabdan boshlashga qaror qildik. Loyihadan ko‘zlangan maqsad – birinchidan, yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, ikkinchidan, milliy valyutada jamg‘armalar oshishini ta‘minlash. Chunki har qanday jamg‘arma investitsiyaga yo‘naltirilishiga sharoit yaratadi.

Respublikamizda tijorat banklari tomonidan aholi omonatlarini jalb etish bo‘yicha amaldagi qonunchilik bazasiga, ayniqsa banklarga nisbatan ishonchning oshishiga xizmat qiladigan aholi omonatlarining 100 foizlik himoyalash kafolatiga, ular bo‘yicha sining saqlanishi hamda omonatlar bo‘yicha olingan daromadlarning soliقدan ozod etilganiga ham e‘tibor qaratildi. 2017 yil uchun prognoz qilingan makroiqtisodiy shart-sharoitlar bank tizimining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi, banklarning faolligi va umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ko‘shadigan hissasi oshadi. Shu bilan birga, o‘tgan yillardagi kabi asosiy e‘tibor bank tizimi barqarorligini taminlashga va ularning investitsion jarayonlardagi faolligini yanada kengaytirishga qaratiladi.

Huquqiy va investitsion muxitni yaxshilash, kredit tashkilotlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning kapitallashuv darajasini oshirish, bank tizimi raqobatbardoshligini ta‘minlash, bank sohasida boshkaruv va nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu omillar umumiy bank xizmatlari sifatining yaxshilanishiga va zamonaviy bank texnologiyalarining tatbik etilishiga zamin yaratadi.

Bank sohasining investitsion jozibadorligini saqlab turish birinchi navbatda, maxalliy va strategik chet el investorlariga ko‘shimcha aksiyalarni sotish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirish imkonini beradi.

Banklarda omonatlar hajmining muttasil o‘shishini ta‘minlash maqsadida doimiy ravishda yangi jozibador omonat turlarini taklif etib borish, ommaviy axborot vositalarida aholi va xo‘jalik yurituvchi subektlarining mablag‘larini banklardagi depozitlarga joylashtirish bo‘yicha shakllantirilgan kafolatlar tizimi, yaratilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni keng targ‘ib qilish ishlari davom

ettiriladi. SHuningdek, hududlarda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida doimiy ravishda amaliy seminarlar o'tkazish, ularni bank xizmatlari bilan tanishtirish, bank mijozlarining huquqiy madaniyati va moliyaviy savodxonligini oshirish, shuningdek taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini va kelib chiqayotgan mavjud muammolarni baholash maqsadida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida so'rovlar o'tkazish ishlari davom ettiriladi.

Banklarda barqaror resurs bazasini shakllantirish va uni yanada kengaytirish, aholining bo'sh pul mablag'larini bank omonatlariga jalb qilishni yanada rag'batlantirish va kafolatlashga doir qabul qilingan Prezidentimizning qator Farmon va Qarorlari aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

### **3.2. Tijorat banklarida depozitlarni jalb qilishni takomillashtirish yo'nalishlari.**

Mustaqil mamlakatimizda inqirozga qarshi huquqiy choralar ko'rilayotganligi iqtisodiyotning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oldini olish chora-tadbirlari puxta, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan istiqbolli dasturlarda namoyon bo'lmoqda. Shu o'rinda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini O'zbekiston sharoitida bartaraf etishning ustuvor qonunchilik asoslari, shuningdek tarixiy, iqtisodiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari muhim huquqiy asos vazifasini bajarayotganligini ta'kidlash joiz. Belgilab berilgan chora tadbirlarga asosan iqtisodiy o'sishning o'zoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash; tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, halqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab

chiqarish infrato'zilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, aholi bandligini ta'minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish; aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklariga jalb qilishning davlat tomonidan ta'sirchan va o'zoq muddatli rag'batlantirish huquqiy mexanizmlarini to'liq ishga solish, banklarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish, ya'ni investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashtirishni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmat ko'rsatish faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish taqozo etiladi.

Binobarin, aholining daromadlarini ko'paytirish, fuqarolar va tadbirkorlar mulk huquqining kafolatlari, kasanachilik faoliyatining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatida sanoat mulkiga bo'lgan huquqni xususan, ixtiro, foydali model sanoat namunasini huquqiy jihatdan muhofaza qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amaliyotda tatbiq etish ya'ni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish barobarida tejamkorlik tamoyilini huquqiy ta'minlashga erishish lozim. Eng muhimi, ularning eksportga mahsulot ishlab chiqarish borasidagi faoliyatini har tomonlama davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari amaliyotda o'zining samarasini bermoqda. Aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilishning shakl va uslublarini takomillashtirish va yangilash bank tizimini isloh qilishning muhim vazifasi sifatida belgilanadi.

Bugungi kunda jamg'armalar mohiyati kelajakda foyda ko'rmoq uchun kundalik iste'molda tejamkorlik qilishga bog'lik, degan mazmunda talkin etilmoqda. Masalaning bunday qo'yilishi ob'ektiv ravishda depozit foizlari stavkasini kayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur sharoitda belgilangan depozit foizlari stavkasi jalb etilgan jamg'armalarni inflyasiya ta'siridan saqlashidan tashqari, ularning o'sib borishini ham ta'minlashi lozim.


Depozit foizlar qiymatini belgilash vaqtida ushbu qiymatni belgilab beruvchi asosiy omillarning ta'sirini e'tiborga olish kerak. Bank faoliyatining

rentabelligi, inflyasion jarayonlar passivlarni operativ boshqarish, shular jumlasidandir. Taklif etilayotgan ushbu modelning o'ziga xos hususiyati shuki, unda inflyasion o'zgarishlar ko'rsatkichi normativ foiz stavkasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bank sohasida qo'llanilayotgan amaliy faoliyatning tahliliy xulosasi shuni ko'rsatmoqdaki, jamg'armalarning ayrim xillarini mijozlar uchun qiziqarli qilish maqsadida inflyasion ta'sirini e'tiborga olib, sarmoya va jamg'arma uchun to'lanadigan foizlar miqdori hisob raqamini yopish yoki uning mablag'lari bilan moliyaviy operatsiya bajarish chog'ida qayta ko'rib chiqqan ma'qul. Shubxasiz, bank amaliyotida depozit foizlarning «antiinflyasion» modeliga keskin burilish tarzida o'tish oqibatida ushbu foizlar bilan bog'lik sarf-harajatlar tushadigan foyda miqdoridan oshib ketadi. Shuni nazarda to'tgan holda, bank foizlari stavkasini belgilash siyosatini uddaburonlik bilan amalga oshirib, inflyasion o'zgarishlar ta'sirini e'tiborga oluvchi yangi modellarini asta-sekin tatbiq etgani maqsadaga muvofik. «Antiinflyasion» modellarning aynan qaysi xili ma'qulligini aniqlash uchun mazkur omilarni e'tiborga olish kerak, jamg'armaning u yoki bu xilini tatbiq etishda bankning iqtisodiy manfaatdorligi hamda jamg'armaning ijtimoiy ahamiyatga molik ekanligi. Faraz qilishimizcha, bank jamg'arma kapitalini ishonchli, samarali loyixalarga joylashtirish natijasida foiz stavkalarining «antiinflyasion» modelini jamg'armalarning barcha turlariga nisbatan qo'llash mumkin bo'ladi.

Banklarda amalga oshiriladigan jamg'arish operatsiyalarining tahlili va hozirgi vaqtda jamg'arish jarayonlarida ko'zatilayotgan o'ziga xos dinamik o'zgarishlarni o'rganish bank amaliyotini takomillashtirish yuzasidan bir qator aniqmuloxazalarni bildirish uchun asos bo'ldi. Xususan, badavlat mijozlar uchun mo'ljallangan eksklyuziv xizmat turlarini kengaytirish hamda takomillashtirish o'rinlidir. Buning uchun valyuta bozorida qimmatli qog'ozlar savdosi bilan bog'lik trast operatsiyalarini rivojlantirish kerak bo'ladi.

Jamg'arish jarayonlarida milliy so'mning qimmatini oshirish maqsadida banklarda milliy valyuta ko'rinishidagi jamg'armalarni inflyasiya ta'siridan saqlovchi turli xil bank mahsulotlarini yaratish zarur



**4-rasm. 2017 yil 1 yanvar holatiga Tijorat banklarining muomaladagi depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlari hajmi.(trln so'm)<sup>10</sup>**

Keyingi yillarda bank tizimida depozit sertifikatlari oshib borishini ko'rishimiz mumkin bu rasimda ham depozit sertifikatlarining ulishi ikkinchi o'rinda turganini ko'rishimiz mumkin

Mablag'larini chet el valyutasi ko'rinishida saqlash odatiy tus olgani sir emas. Shuning uchun bank mijozlariga milliy valyuta ko'rsatgichlari tebranishlarini nazarda tutib muhofazali so'm jamg'armalarini taklif etish darkor. Uzoq muddatli jamg'armalarni uyushtirish jarayonlarini takomillashtirish uchun jamg'armalarni saqlash muddatining yakunida inflyasiya ta'sirini nazarga olib, qo'shimcha qiymat to'lashga imkon beruvchi depozit stavkalarini tayinlash shart bo'ladi. Raqobatbordoshlikni oshirish va alohida saqlanayotgan chet el valyutasini jalb qilish maqsadida yangi bank mahsuloti sifatida valyutada yuutuqli jamg'armani taklif etish mumkin.

<sup>10</sup>2016 yilda pul kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.

Jamg'armalar bozorining yangi sohalarini egallashga intilish lozim. Xususan, oliy ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatishni tashkil etib, «talabalik hisobraqam» larnini ochish kerak. Fikrimizcha, ushbu taklif, muloxazalarimiz nafaqat ChEKI "Hamkorbank" ATB balki boshqa barcha tijorat banklari oldida turgan aniq masalalarini xal etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ular aholining bo'sh pul mablag'larini jalb qilishning shakl va uslublarini takomillashtirishning metodologik asosini tashkil etadi.

Hozirgi kunda tijorat banklari o'z depozit siyosatini yurgazishda asosan aholi qatlamlari, tuman aholi soni va ularning daromadlarini e'tiborga olish zarur. Tijorat banklari aholiqo'lidagi bo'sh pul mablag'larini yig'ishda ko'p va turli xil omonatlar yaratish va o'z xizmat doirasini kengaytirish lozim. Ma'lumki aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'ni hozirgi kunda tijorat banklariga bo'lgan e'tibor pasaygan bir vaqtda aholi bunday mablag'larni yuqorida aytganimizdek har xil yangi omonat turlarini yaratgan holda amalga oshirmoqda. Misol tariqasida taklif etilayotgan yangi omonat turlari, jahon amaliyot sinovidan o'tgan plastik kartochkalar, yangi bank tomonidan chiqarilayotgan depozit sertifikatlar buning hammasi hozirgi zamon depozitga jalb qilish usullaridan biri hisoblanadi. Bunday omonatlarni qanchalik tijorat banklari ko'prok taklif etsalar, aholi o'rtasida targ'ibot va tashvikot ishlarini to'g'ri yo'lga qo'ysalar va shu omonatlarni yaxshi reklama qilsalar hamda qilingan reklamaga amal qilgan banklarga bo'lgan aholi ishonchi ortadi va yangi ochilgan omonatlarga mablag' jalb qilish engil ko'chadi. Barcha tijorat banklari hozirgi kunda raqobatdosh bo'lishi uchun o'zining yangi omonat turlarini taklif qilishadi. Biroq, katta foizga jalb qilingan mablag'larni kanday aktivlarga joylashtirish kerak degan savol paydo bo'ladi. Depozitlar rivojlanishida uning kafolatlanganligi muhim rol o'ynaydi, sababi bu kafolatlanish aholi bankka bo'lgan ishonchini ortiradi.

Tijorat banklari bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga ko'proq jalb qilish, jozibador omonatlarni muntazam joriy etish orqali ularning manfaatdorligini oshirish hamda eng muhimi omonatchilarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik bazasini har tomonlama takomillashtirishga alohida

ahamiyat berilmokda. Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan aholining bo'sh pul mablag'larini banklardagi omonatlarga jalb qilgan holda ularga ko'shimcha daromad olish imkoniyatlarini yaratish yo'lida izchil sa'y-harakatlar olib borilmokda.

Buning zamirida xalq farovonligini oshirish, aholining turmush darajasini yuksaltirish maqsadi yotgani e'tiborga molikdir.

Jaxon tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, aholi mablag'larini jalb qilishning zamonaviy usullarining takomillashuvining birlamchi sharti bu banklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirilishidir. Chunki amaldagi tijorat banklariga xos an'anaviy, bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatish sharoitida rag'batlantiruvchi usullarning bank tizimida ko'llanishi ko'shimcha mijozlar jalb qilishning yangi boskichini boshlab berdi. Bugungi kunda bank tizimida aholii omonatlarini muxofaza qilish mexanizmlarini jiddiy islox qilish zaruratini vujudga keltiradigan bir qancha sabablar paydo bo'ldi.

Sabablarning birinchi guruhi tabiiy-tarixiy bo'lib, ular bank faoliyatining murakkablashishi va yangi an'anaviy bank xizmatlari bozoridan raqobatning rivojlanishi bilan bog'lik. Banklarni tashkil qilishning faollashishi natijasida asosiy bank xizmat turlari ko'payib ketdi va sifatli xizmat ko'rsatish borasida raqobat kurashiga aylandi, buni esa barcha banklar ham amalga oshira olmaydi. Shu bilan birga bank biznesi tobora murakkablashib bormoqda. Bozorda ancha murakkab moliyaviy vositalar vujudga kelmokdaki, ular bank xodimlariga juda qat'iy talablar qo'ymokda. Inflyasiyaning o'zgaruvchanligi, bozorning barqaror emasligi sharoitida noto'g'ri boshqaruv qarori bank uchun halokatli bo'lib, bankrotlikka olib kelishi mumkin.

Sabablarning ikkinchi guruhi aniq tarixiy tavsifga ega bo'lib, banklar faoliyatining tashqi sharoitlari yomonlashgani bilan bog'lik. Iqtisodiy tushkunliklar korxonalarini to'lovga noqobilligi bilan bog'lik ravishda kreditlar kaytmasligi xatarining keskin oshishiga olib keladi. To'lov inkirozi bank sektoriga o'tishi va ko'pgina kredit muassasalarini og'ir ahvolga solib qo'yishi mumkin. Ayniqsa sanoat mijozlari bilan bog'lik banklarning kreditlar kaytmasligidan katta zararlar



ko‘rish ehtimoli bor. Odatda, rivojlangan iqtisodiy davrda ko‘pgina tijorat banklari yirikkorxonalar va sanoat birlashmalari tomonidan o‘z moliyaviy muammolarini hal qilish, ya’ni bank orqali ko‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadida tashkil etiladi. Bu banklar imtiyozli kreditlar olishga majbur qiladigan aksiyadorlar va paychilar tomonidan kuchli tazyikka duch keladi.

Bank muassasalarida omonatlar bo‘yicha bitimlarni yozma ravishda tizim majburiyatini belgilash lozim. Bank va omonatchi o‘rtasida bitimning asosiy shartlari tomonlarning huquq va majburiyatlari aks etgan shartnoma to‘zilishi mumkin. Agar hisobvaraqlar omonatchini yozma arizasiga asosan ochilgan bo‘lsa, bank unga hisobvaraqlar tartibi yoritilgan va tomonlar munosabatlari ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riklar yoki omonat bo‘yicha shartlarning bir nusxasini berishi shart. Mijoz hisobvaraqlar ochilishidan avval mazkur hujjat bilan tanishib chiqish va yozma ravishda o‘z roziligini bildirishi kerak. Afsuski hozir ba’zi banklar mijoz bilan yozma bitim to‘zmaydi, bu esa mijozlarning huquqiy tomonidan himoyasini kafolatlamaydi.

Inflyasiya va bank aktivlari bo‘yicha foiz stavkalarining o‘zgarib turishi sharoitida bankning o‘ziga olgan majburiyatlari keyinchalik xalokatli bo‘lib, to‘lovga noqobil qilib qo‘yishi mumkin. Bankning mijoz bilan munosabatlarini takomillashtirishning uchinchi yo‘nalishi, bankning omonatchiga uning birinchi talabi bilan shartnomadagi muddat tugamagan bo‘lsa ham omonatni kaytarilish majburiyatidir. Bu fuqarolik kodeksiga qayd etilgan bo‘lsada, amaliyotda ko‘pincha bo‘zilmokda. Muayyan banklar omonatchining muddati tugamagunga qadar o‘z pullaridan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydigan omonat turlarini amalga oshirmoqda. Natijada omonatchida bankning ishonchliligiga shubxa uyg‘onadi, o‘zgaruvchan foiz stavkalari sharoitida omonatni muddatidan avval olish huquqini tan olish, ayniqsa zarurdir.

Bu vazifani aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali hal etish mumkin, binobarin, Xalqaro ekspertlar e’tirof etishicha, aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish maktab yoshidagi bolalardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, yosh avlodning moliyaviy bilimlarning asosiy

tushunchalariga ega bo'lishi – kelajakda ularni bank mijozlariga aylanishiga zamin yaratadi.

Tijorat banklari tomonidan depozitlar jalb etish bo'yicha banklarga nisbatan ishonchning oshishi depozitlarni himoyalashga, sirning saqlanishi ham depozitlarning ko'payishiga olib keladi.. Taxmin qilingan makroiqtisodiy shart-sharoitlar bank tizimining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi, banklarning faolligi va umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'shadigan hissasi oshadi. Shu bilan birga, o'tgan yillardagi kabi asosiy e'tibor bank tizimi barqarorligini taminlashga va ularning investitsion jarayonlardagi faolligini yanada kengaytirishga qaratiladi.

Tijorat banklarida investitsion muxitni yaxshilash, depozitlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning kapitallashuv darajasini oshirish, bank tizimi raqobatbardoshligini ta'minlash, bank sohasida boshqaruv va nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu omillar umumiy bank xizmatlari sifatining yaxshilanishiga va zamonaviy bank texnologiyalarining tatbik etilishiga zamin yaratadi.

Joriy yilda ham bank tizimidagi isloxo'tlar davom ettirilgani holda Markaziy bank tomonidan quyidagi yunalishlardagi chora-tadbirlar davom ettiriladi:

- qo'shimcha aksiyalarni chiqarish va ularni fond bozorlarida joylashtirish orqali banklarning jami kapitalini o'sishini ta'minlash;
- bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektori ulushini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirish;
- tijorat banklari tomonidan o'zoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarish va pul bozorida joylashtirish;
- bank infrato'zilmalari, hususan, mini-banklar va mahsus kassalar tarmog'ini kengaytirish hamda ularning faoliyatini takomillashtirish orqali bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali bank xizmatlarining sifatini yanada yuksaltirish va ko'lamini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, respublikaning barcha tijorat

banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga internet-banking bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi borasidagi 2018 yilga mo'ljallangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash;

- bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada kengaytirish;

- banklardan tashqarida joylashgan va xavfsizligi ta'minlangan idora va tashkilotlar, yirik supermarket binolarida bank infokiosklari tarmog'ini kengaytirish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda banklarda depozitlar hajmining muttasil o'sishini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda yangi jozibador omonat turlarini taklif etib borish, ommaviy axborot vositalarida aholi va xo'jalik yurituvchi subektlarining mablag'larini banklardagi depozitlarga joylashtirish bo'yicha shakllantirilgan kafolatlar tizimi, yaratilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni keng targ'ib qilish ishlari davom ettiriladi. Shuningdek, hududlarda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida doimiy ravishda amaliy seminarlar o'tkazish, ularni bank xizmatlari bilan tanishtirish, bank mijozlarining huquqiy madaniyati va moliyaviy savodxonligini oshirish, shuningdek taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini va kelib chiqayotgan mavjud muammolarni baholash maqsadida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida so'rovlar o'tkazish ishlari davom ettiriladi.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga xizmat qilmoqda. Ushbu olib borilayotgan iqtisodiy chora – tadbirlar bank tizimining ijobiy o'zgarishiga va aynissa aholini bank tizimiga ishonchini yanada oshirishga o'z hissasini qo'shadi degan umiddamiz.

## **Xulosa va takliflar.**

Mamlakatimiz bank tizimi o'ziga xos tarzda islox qilinib ,banklar uchun barcha zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.Shu sababli ular respublikamizning barcha mintaqalarida, qishloq joylarda hatto chekka-chekka joylarda ham faoliyat yuritmoqda. Banklar mijozlarinig moliyaviy ahvoli ham yildan-yilga yuksalib bormoqda.

Bunga esa hukumatimiz tomonidan bank tizimi rivojlanishi uchun barcha,huquqiy asoslar yaratilayotganligi sabab bo'lmoqda. Deyarli har yili ushbu sohani rivojlantirish, aholini banklarga bo'lgan ishonchini yanda rivojlantirish, maqsadida bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, ularning ijrosi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan banklar tomonidan izchil ta'minlanib kelmoqda.

Odamlarning ishonchi ularni bank tizimidagi ishtirokida ko'rinadi. Bunda mijozlarning mablag'lari banklar uchun asosiy moliyaviyy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda muddatli omonatlarining bank uchun resurs sifatida afzalliklari quyidagilardan iborat: .

Muddatli omonatlarga foiz to'lash bilan bog'lik harajatlar banklararo kreditlar, bank veksellari va boshqa moliyaviy instrumentlar bo'yicha harajatlardan sezilarli darajada kamdir. Bu jamg'armaning bosh maqsadi omonatlarga pul qo'yayotgan aholining to'la ishonchini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish, bank omonatchilarini himoya qilish, bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish va respublika bank tizimiga aholii omonatlarini jalb qilishni rag'batlantirishdan iborat. Ushbu jamg'armaga mamlatimizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari a'zo bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasida depozitlarni jahonda yuz berayotgan moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlaridan himoyalashning ishonchli kafolatlarini ta'minlash, mamlakat bank tizimiga aholining ishonchini tobora mustaxkamlash, aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilish uchun ko'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2008 yil 28 noyabrda O'zbekiston Respublikasi birinchi

Prezidentning «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Depozitlarni banklarga keng ko'lamda jalb qilishni ta'minlash maqsadida banklarning joriy likvidligining barqaror darajasini ta'minlash lozim. Bunda muddati kelgan omonatlarining va ularga hisoblangan foizlarning naqd pulda o'z vaqtida va to'liq berilishini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim.

Depozitlarning o'z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta'minlash maqsadida tijorat banklarining likvidligi va to'lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va taxlilni kuchaytirish lozim.

Biz bitiruv malakaviy ishimizni bajarish jarayonida quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirdik:

- Banklar tomonidan omonatlar bo'yicha beriladigan reklamalar uchun imtiyozlar berish yoki bunday reklamalari tekin qilish, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali aholining bo'sh pul mablag'larini banklarda saqlashning afzalliklari tug'risida keng ko'lamda tashviqot ishlarini olib borish;

- O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan barcha banklarning depozit va ularning shartlari bo'yicha ma'lumot beradigan markazlarini joriy qilish;

- Banklar o'rtasida depozitlarni jalb qilish bo'yicha raqobatni kuchaytirish

- Depozit ishlari bo'yicha tushuntiruv ishlarini olib boruvchi maxsus maslahatchi menejerlar lavozimini joriy qilish

- Tijorat banklari o'z resurs bazasini oshirish uchun mijozlar bilan munosabatlarini takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va ularning talablarini qondirish bilan bog'lik bo'lgan operatsiyalarni erkinlashtirishlari asosida aholi ishonchini qozonishi, ularning bo'sh pul mablag'lari va jamg'armalarini bankka jalb qilish bo'yicha yangi xizmatlar qo'llashni ishlab chiqishlari lozim;

- Depozitlarni jalb qilish bo'yicha chet el tajribasidan foydalanish, ya'ni rag'batlantiruvchi foiz stavkalarini taklif qilish kerak

- Internet, uyali aloqa vositalari yordamida depozit turlari foizlari va boshqa ma'lumotlar etkazib turilishini hamma banklarda joriy qilish;

- Har bir bankda depozit xizmatlarini kengaytirish, aholining keng qatlamini hohishlarini o'rganuvchi va yangi xizmatlar ustida ishlovchi maxsus marketing tadqiqotchi ishini tashkil qilish kerak.

Agar har bir shaxs bankka qo'ygan mablag'larini but saqlanishiga, o'z vaqtida qaytarilishiga va ularga to'lanadigan foizlaring barqaror bo'lishiga, bankdagi pul mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlar sir saqlanishiga qanchalik ko'p ishonch xosil qilsa o'zining vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini bankka saqlashga va shuning evaziga qo'shimcha daromad olishga moyilligi shuncha darajada ko'payishiga olib keladi. Shu bois, banklar uchun birinchi galda, o'z mijozlarining ishonchini qozonish, ularga sifatli xizmat ko'rsatish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ana shu vazifalar va me'yorlar qaror topgan joyda mijoz manfaati, bank muassasasiga murojaat etuvchi har bir shaxs hohish istagi to'la qanoatlantiradi, demak bankka tashrif buyuruvchilar va bo'sh mablag'larin hech shubxasiz ishonib topshiradiganlar ko'payadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### **1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Maxkamasi qarorlari.**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “Adolat”, 2018
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. “Adolat” 2017
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonun.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonun.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda qabul qilingan “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi Qonuni.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 aprelda qabul qilingan “Elektron tijorat to'g'risida”gi Qonuni.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi “Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob- kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2751-sonli Qarori
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-2753-sonli Qarori
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi “Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2777-sonli Qarori
- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5296 sonli Farmoni

1.12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620 sonli Qarori

1.13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3225 sonli Qarori

1.14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3272 sonli Farmoni.

1.15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida "gi PF-5177-son Farmoni.

1.16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 20-fevraldagi “Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari**

2.1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston” 2017.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi

2.3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T: “O‘zbekiston”, 2016. - 56 b.

2.4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T: “O‘zbekiston”, 2017. – 48b

2.5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.



### **3. Sohaga oid me'yoriy hujjatlar**

3.1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari to'plami.T.: 2017.

3.2. Kredit axboroti milliy institutining ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda banklararo kredit byurosiga va tijorat banklariga kredit axbortlarni taqdim etish tartibi to'g'risida Nizom. 2004 y. 21 may.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/3 sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2015 yil 6 iyulda 2693 sonli davlat ro'yxatidan o'tgan "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizom.

### **4. Asosiy adabiyotlar**

4.1. Rashidov O.Y., Toymuxammedov I.R., Alimov I.I., Tojiev R.R. Pul, kredit va banklar: darslik. - T.: TDIU, 2009.

4.2. Pul, kredit va banklar: darslik. A.A.Omonov, T.M.Qoraliev.-T.: Iqtisod-Moliya, 2011.

4.3. Abdullayev Y., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. o'quv qo'llanma-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009 yil.

4.4. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar: darslik. - Toshkent: IQTISODMOLIYA, 2007.

4.5. Балабанов А.И., Боровкова В.В. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. –СПБ.: Питер, 2012.-448с.

4.6. Банковские операции: учеб. пособ. для средн. Проф. Образования / под ред. В.И. Колесникова. – М.: Финансы и статистика, 2012.

4.7. Банковское дело. учебник под.ред.проф Г.Г.Коробовой. –М.: «Экономистъ» 2012. 597 б.

4.8. Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов; под.ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2010. – 384 с.

4.9. Банковское дело. Учебник под.ред.проф В.И.Колесникова, Л.П.Кроливцевкой. –М.: «Финансы и статистика» 2012. 466 б

4.10. Банковское дело: Экспресс – курс: Учеб. пособ. / Под ред О.И. Лаврушина М.: Кнорус. 2008.

4.11. Е.В.Жуков. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2014.

4.12. Жарковская. Е.П. Банковское дело: Учеб. - М: «ОМЕГА -Л»,2012

4.13. Краливецкая Л.Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2012. – 280 с.

## **5.Qo‘shimcha adabiyotlar**

5.1. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. Учебник. - М.: Высшее образование, 2008.

5.2. Финансы и кредит. Учебник. Под ред. Белоглазовой Г.Н. - М.: Юрайт-Издат, 2003. -

5.3. Миллер Л.Р., Ван-Хуз Д.Д. Современные деньги и банковское дело. Пер. с англ. - Москва: Инфра-М, 2000.

5.4. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивавшихся странах. Пер. с англ. В 2-х т. Вашингтон, Д.С.: ИЕР МБРР, 1994.

5.6. Деньги, кредит, банки. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2009.

5.7. Boboqulov T.I. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash borasidagi muammolar va ulami hal qilish yo‘llari. I.f.d. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtoref. - T.: BMA, 2008.

5.8. “O‘zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami (2015 yil 2 aprel). -T.: TMI. IQTISOD-MOLIYA, 2015.

## **6. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar**

6.1. Bank axborotnomasi, gazetasi 2017 yil №1-52, 2018 yil № 1-25.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2014-2017 yillardagi hisobotlari

6.3. “O‘zbekiston sanoat-qurilish bank”i aksiyadorlik tijorat banki yillik hisobotlari

### **Internet saytlar**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy sayti ma’lumoti.
5. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) - Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
6. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) - biznes axborotlari portali.
7. [www.Hamkorbank.uz](http://www.Hamkorbank.uz)- “Hamkorbank” rasmiy sayti.